

OIV INFEKSIYASINING YUQISH YO‘LLARI VA OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Djuraeva Muxabbat Ergashyevna, Alimardonova Zulxumor Jalilovna

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat
salomatligi, gigiyena va menejment kafedrası**

O‘zbekiston, Termiz shahar

Dolzarbligi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda 42 millionga yaqin bemor qayd etilgan bo‘lib, kasallanish boshlanishidan buyon bugungi kunga qadar qurbonlar soni 20 millionni tashkil etdi. OITS bilan kasallanishning eng yuqori darajasi 20 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan. OIVning onadan bolaga yuqish chastotasi Yevropa va AQSHda 15-25% dan Afrika va Osiyoda 25-40% gacha. OITS yurak qon-tomir tizimi kasalliklari va neoplazmalardan keyingi o‘rinda o‘lim darajasi bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi. OITS ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o‘limining asosiy sababchisidir.

Har yili respublikamizda OIV infeksiyasi bilan yangidan aniqlanayotgan holatlar hisobga olinib, OIV infeksiyasi bilan yashovchilar soni ortib borishi kuzatilmoqda. Kasallikning ko‘p yillik dinamikasida 2017-2019-yilar holatigi qaraydigan bo‘lsak 2017-yil OIV bilan ro‘yxatga olinganlar soni 4025 nafarni, shulardan erkaklar-2293, ayollar-1732 nafarni tashkil etmoqda. 2018-yilda 4060 nafarni, shulardan erkaklar- 2303, ayollar esa-1757 nafarga yetgan. 2019-yilda 3983 holat qayd etilgan, shulardan 2291-nafari erkaklarni, 1692-nafarini ayollar tashkil etgan.

2019-yilda OIV infeksiyasi bilan ro‘yxatga olinganlar soni va kasallanishning eng yuqori ko‘rsatgichi Toshkent shahrida-671 shaxs, Andijon viloyatida-562 shaxs, Toshkent viloyatida-554 shaxs, Samarqand viloyatida-434 shaxsda aniqlangan bo‘lib, eng past ko‘rsatgich Navoiy viloyatida-56 shaxs OIV infeksiyasi bilan kasallangan.

Ma’lum bo‘lishicha respublikamizda so‘ngi yillarda yiliga o‘rtacha 3,9-4,2 ming nafar atrofidagi shaxslar OIV infeksiyasi bilan ro‘yxatga olinmoqda.

Hozirgi vaqtda odamning immunitet tanqisligi virusi yuqishining uchta yo‘li mavjud: 1. Jinsiy yo‘l orqali yuqishi. 2. Parenteral yo‘l bilan yuqishi. 3. Onadan bolaga (vertikal) yuqishi.

OIV infeksiyasining oldini olish chora-tadbirlari. Aholini OIV infeksiyasi masalalari bo‘yicha xabardorligini oshirish: Aholining OAV (televideniya, gazeta, jurnallar, radio, masjidlar) orqali sog‘lom turmush tarzi va OIV yuqish xavflari haqida xabardorligi; Yoshlar, maktab o‘quvchilari vaqtlarini o‘tkazadigan joylarda (lagerlar, klublar, diskotekalar), xavfli guruhlar uchun xavfsiz jinsiy aloqa, yakka nikohlilik, turmush o‘rtog‘iga sodiqlik haqida ma’ruza, seminarlar o‘tkazish; Yoshlar orasida (maktab o‘quvchilari, talabalar) OIV yuqishini oldini olish maqsadida ommabop ma’lumotni broshyura ko‘rinishida bosma qilish va tarqatish.

OIVning onadan bolaga o‘tishini oldini olish: Bolalar OIVni ona qornida, tug‘ruq vaqtida yoki ko‘krak sutini emizish vaqtida yuqtirishi mumkin. Ayol homiladorligining birinchi 3 oyligida, OIVning yuqishi havfi qaysi guruhga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, OIVga testdan o‘tkaziladi. Buning uchun qon namunasi olinib IFA usulida tekshiriladi, musbat natija olinganda, tashxisni tasdiqlash uchun kon namunasi IB usulda takroran tekshiriladi.

OIVning qon orqali yuqishini oldini olish: OIVning qon orqali yuqishini oldini olish, havsiz qon mahsulotlari bilan ta’minlash (donorlarni nazorat qilish, qon va uning preparatlarini OIV infeksiyasiga tekshirish).

OIV infeksiyasini jinsiy aloqa yo‘li orqali yuqishini oldini olish, tasodifiy aloqalarga yo‘l qo‘ymaslik, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, jinsiy aloqa sheriklari sonini kamaytirish, moddiy rag‘batlantirish evaziga intim xizmat qiluvchilar bilan jinsiy aloqaga yo‘l qo‘ymaslik, yakka nikohlikka va turmush o‘rtog‘iga sodiqlik, aholini, ayniqsa yoshlarni xavfsiz jinsiy xulq atvorga o‘rgatish.

Bugungi kunda aholining barcha qatlamlarida xususan 12-45 yoshli aholi orasida OIV infeksiyasini oldini olishga qartilgan profilaktik chora-tadbirlar, sanitariya-targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.